



Pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishi hamda ularni bartaraf etish usullari

Nurmatova Mohlaroyim Zarip qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
pedagogika psixologiya fakulteti o'qituvchisi

Rayimova Robiyaxon O'rol qizi

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'qituvchilar o'z faoliyatlarida o'quvchilarning dars intizomi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, ya'ni o'quvchilarning ta'limiga, bilim olishiga nisbatan salbiy munosabatiga duch kelishadi. Ular o'quvchilarga ma'lum talablar qo'yadilar va o'quvchilar bu talablarga so'zsiz amal qiladilar deb o'ylaydilar. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni ko'chadagi qarama-qarshi harakatga qiyoslash mumkin, chunki o'quvchining o'qituvchiga munosabati konflikt va muammoli xulq atvor shaklida namoyon bo'ladi. Intizomga rioya qilmaydiganlarga nisbatan konstruktiv ta'sir samarali bo'lishi uchun bu xatti-harakatning asl motivlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va shundan kelib chiqib, muammoning yechimini topish usullarini tanlash lozim. Bunday yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmatni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: talablar, konflikt va muammoli xulq-atvor, konstruktiv ta'sir, hurmatni shakllantirish.



Абстракт: В своей деятельности преподаватели сталкиваются с проблемами, связанными с дисциплиной учащихся, то есть с негативным отношением учащихся к своему обучению и обучению. Они предъявляют учащимся определенные требования и думают, что студенты беспрекословно выполняют эти требования. Отношения ученика и учителя можно сравнить с конфликтом на улице, поскольку отношение ученика к учителю проявляется в форме конфликтности и проблемного поведения. Чтобы оказать конструктивное влияние на тех, кто не соблюдает дисциплину, необходимо определить, каковы истинные мотивы такого поведения и, исходя из этого, выбрать методы поиска решения проблемы. Такой подход формирует взаимное уважение между учителем и учеником.

Ключевые слова: требования, конфликтное и проблемное поведение, конструктивное влияние, формирование уважения.

Abstract: In their activities, teachers face problems related to the discipline of the students, that is, the negative attitude of the students towards their education and learning. They make certain demands on the students and they think that the students will follow these demands without question. The relationship between a student and a teacher can be compared to a conflict on the street, because the attitude of the student to the teacher is manifested in the form of conflict and problematic behavior. In order to have a constructive influence on those who do not follow discipline, it is necessary to determine what are the real motives of this behavior and, based on this, to choose the methods of finding a solution to the problem. This approach builds mutual respect between the teacher and the student.

Key words: demands, conflict and problematic behavior, constructive influence, respect formation.



Konfliktologiya — konfliktlarning kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini oʻrganuvchi fan boʻlib, u lotincha „conflictus“ — toʻqnashuv, „logiya“ — taʼlimot soʻzlaridan olingan. Konfliktologiya har qanday darajadagi konfliktlarning kelib chiqishi, paydo boʻlishi, rivojlanishi, hal qilinishi va yakunlanishi qonuniyatlarini oʻrganadigan fanlararo soha. Konfliktologiya falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tarix, huquq, etika, iqtisod, menejment va boshqa bir qator fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi. Tadqiqotning yoʻnalishiga qarab, konflikt ijtimoiy dialektikaning koʻrinishi, ijtimoiy tizim va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi omili, ijtimoiy qarama-qarshiliklar sifatida oʻrganiladi. Odamlarning psixikasi va ongidagi kelishmovchiliklarni oʻrganadi.

Konfliktning paydo boʻlishiga olib keladigan muayyan doiradagi muammolarni hal qilish konfliktning mohiyatini, konfliktologiya obʼyekti va predmetini aniqlash bilan bogʻliq holda allaqachon paydo boʻlgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Konfliktologiya, yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy oʻziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari koʻpchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni oʻrganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy toʻqnashuvlarning oldini olishga koʻmak beradi. Konfliktning oʻzaro taʼsir subʼyekti — alohida odam, odamlar guruhi va odamlar jamoasi hisoblanadi.

Pedagogik konflikt bu oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi ziddiyatlarni, kelishmovchiliklar, tortishuvlar, mojarolar, muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishlari, bir-birini idrok qilishlarini oʻrganadi. Albatta oʻqituvchi bu muammolarni oldini olishi va yechimini topishi uchun oʻz mutaxassisligini puxta oʻrgangan, muloqot sirlaridan xabardor boʻlishi, darsni tashkil etish bilan birgalikda tinglovchilarni jalb qila olishi kerakdir. Bundan tashqari tinglovchilarni bilim saviyasini va xulq-atvoriga xolisona baho berishi lozimdir.



Mahmud Qoshg'ariy o'z asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Men kishilarning tana a'zolari kasalliklaridan kasallanganida yuzlarcha, minglarcha kishi halok bo'lishini, ruhiy bilimsizlik, uquvsizlik esa yuz minglarcha, o'n minglarcha shaxslar halok bo'lishini ko'rdim va bu kasallikning oldini olishga men o'qituvchilik kasbi orqali erishdim".

Kichik maktab yoshidagi bolalar juda taqlidchan bo'lishadi. Asardagi yoki ertaklardagi ijobiy qahramonlarning sifatlarini o'zlarida mujassamlashtirishga harakat qiladilar, ular harakatlarida ijobiy tomonlar ko'rinadi. Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya jarayonlari birgalikda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda tinglovchi va o'quvchilarimiz faqat o'qituvchilarning bilim saviyasini kuzatibgina qolmay, o'qituvchining ma'suliyatliligi, qobiliyatiligi, ishonchliligi, pedagogik mahorati qobiliyati, samimiyligi, ta'lim tizimiga qay tarzda yondashishiga ham e'tiborlarini qaratadilar. Ta'lim-tarbiyaning samarasi, ta'sirchanligi, avvalo, o'qituvchiga, uning bilim saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik qobiliyat va mahoratiga bog'liqdir. O'qituvchi ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi, o'z kasbi va bolalarni yaxshi ko'radigan, insonparvar, adolatli, talabchan, pedagogik odobli, har bir o'quvchisi ulg'ayib kelajakda yaxshi inson bo'lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs, ishbilarmon kishi bo'lib yetishishiga ko'maklashadigan mutaxassis bo'lmog'i lozim.

Yaxshi tarbiya bu avvalo yuqori ma'naviyatli insondir. U o'zining barcha o'ylari va harakatlari bilan sof, adolatlidir. Xuddi shunday murabbiygina o'zining tarbiyalanuvchilarning ma'naviy dunyosini tushunadi, ularning shodlik va qayg'ulari bilan yashaydi, ularning ishonchini qadrlaydi, ular bilan muloqotda xushmuomala va odobli, shafqatli, chidamli, kechirimli bo'ladi. U o'z tarbiyalanuvchilarining har birini yaxshi ko'radi va chuqur hurmat qiladi. Shuningdek, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun pedagog har tomonlama komillikka intilishi kerak va shundagina pedagogik faoliyatida konflikt yuzaga kelishining oldini oladi.



Pedagogik konfliktni yuzaga keltirmaslik uchun tarbiyachi nozik psixolog va mohir pedagog bo'lishi lozim. Tarbiyachi nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o'qituvchilar va o'quvchilar bilan oson muloqotga kirishadi, maktabda va undan tashqarida birgalikdagi faoliyatni mohirlik bilan uyushtiradi, tarbiyalanuvchining fikri, tuyg'usi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san'atini egallagan bo'ladi.

Tarbiyachi tadqiqotchi, tashkilotchi, jamoatchi; fan, sport, texnika yoki san'atga shaxsiy bo'lgan inson. U o'z qalbining butun boyligini tarbiyalanuvchilariga hadya etadi. Pedagogik muloqot tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat, fikrlar almashinuvi, bir-birlarini tushunishlari va tinglashlari pedagogik muloqotda amalga oshiriladi. Pedagogik muloqotning samarali bo'lishi pedagog va o'quvchilarga bog'liqdir. Pedagog tinglash qobiliyatiga ega bo'lsa, u konfliktni o'quvchilar o'rtasida yuzaga keltirmaydi. Tarbiyalanuvchilarni ruhlantiradi, yangi fikr g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ham ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruza agar tinglovchilar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham tarbiyasi va tarbiyalanuvchi ham teng yutadi. Tarbiyachi hayotga endigina kirib kelayotgan, bolani barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlarga yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Tarbiyalanuvchi muomala odobini asosan tarbiyachi timsolida anglab oladi. Sevimli tarbiyachi bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi uchun konfliktlarni yo'qotish uchun harakatda bo'lishi kerak.

Ziddiyatlar muammolari muayyan darajada ilmiy adabiyotda olimlar e'tiborini o'ziga tortgan. Biroq, bu holatni konfliktlar nazariyasiga taalluqli deb bo'lmaydi, chunki mohiyat jihatidan unga umuman e'tibor berilmagan. Shunga qaramasdan ziddiyatlar va konfliktni, bir tomondan, sinonimlar sifatida hisoblash mumkin emas, boshqa tomondan esa, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib ham bo'lmaydi. Ziddiyatlar, qarama-qarshi turishlik, tafovutlar - bular konflikt uchun zarur, biroq yetarli shartlar emas. Qarama-qarshi turishlik va ziddiyatlar, qachonki ularni ifodalovchi kuchlar o'zaro ta'sirga, o'zaro munosabatga kirisha



boshlaganda konfliktga aylanadi. Shunday qilib, konflikt obyektiv yoki subyektiv qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar bo'lib, u taraflarning bir-biriga nisbatan qarama-qarshi kurashida ifodalanadi.

Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, bu fikrni jamiyatga taqqoslaganda gap mavhum kuchlar, kosmik va boshqa tabiiy hodisalar, shuningdek g'ayrioddiy fenomenlar (taqdir, tanilmagan obyekt va sh.k.) haqida emas, balki ijtimoiy subyektlar sanalgan muayyan odamlar, individlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, siyosiy partiyalar yoki davlatlar haqida boradi.

Ijtimoiy konflikt o'z ichiga shuningdek, individ yoki guruhning dushman taraf faoliyatini cheklashga, boshqa shaxs yoki guruhlar manfaatiga zarar yetkazishni cheklashga qaratilgan faolligini ham oladi. Konfliktlar muammosi yana qator atamalar: nizolar, debatlar, munozaralar, kim oshdi savdosi, raqobatchilik, nazorat ostidagi kurashlar, egri va to'g'ri zo'ravonlik kabilardan foydalanadi. Ko'p tadqiqotchilar konfliktni umumiy va tarixiy o'zgarishlar bilan qo'shib o'rganadilar.

Konflikt predmeti va obykti. Konflikt predmeti deb taraflar o'rtasidagi nifoq (kelishmovchilik)ga sabab bo'lgan obyektiv mavjud bo'lgan yoki fikran tasavvur qilingan muammoga aytiladi. Har qaysi taraf bu muammoni o'z foydasiga hal qilishdan manfaatdor buladi. Konflikt predmeti - bu shunday ziddiyatki, subyektlar u uchun va uning hal qilinishi uchun qarama-qarshi kurashga kirishadilar. Bu hokimiyatga intilish, biror boylikni egallash, ustun mavqega ega bo'lish kabi muammolar bo'lishi mumkin.

Konfliktni hal qilish yo'llarini topishda uning predmetini aniqlash muhim, biroq ko'pincha bu qiyinlik bilan kechadi. Ko'p konfliktlar o'ta chalkash va murakkab holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Konfliktlarda bir necha muammolar ustma-ust yuz berishi mumkin. Konflikt predmeti tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin. Bunga uzoq davom etadigan oilaviy kelishmovchiliklar yoki millatlararo konfliktlar misol bo'ladi.



Konflikt obyekti bo'lib shaxsiy, guruh, ijtimoiy, davlat manfaatlarining predmeti bo'lgan moddiy dunyo va ijtimoiy borliqning istalgan elementi hisoblanadi. Bu element konflikt predmeti bo'lishi uchun turli ijtimoiy subyektlar manfaatlarini to'qnashadigan nuqtada bo'lishi kerak, subyektlar bunday element ustidan shaxsiy kontrol yuritishga harakat qiladilar. Bunday vaziyatlarga misol tariqasida kichik yoshdagi bolalar chiroyli o'yinchoq ustida talashadilar yoki u yoki bu hududning tegishliligi haqidagi masala hal qilinmaganligi uchun davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning taranglashuvi.

Xulosa qilib atganda, muammoni xulq - atvorni xolisona izlash barcha o'qituvchilarga o'quvchining xulq -atvorini izlashda xolislik yetishmaydi. Intizomni buzganda o'quvchi aynan nimalar qilishi hissiyotga berilmay qisqa izlanish kerak. U juda yomon bola, uning fikri tarqoq, parishonxotir, uni boshqarish juda qiyin kabi izohlar o'quvchiga berilgan noto'g'ri bahosi hisoblanadi. Bu izohlar o'quvchining xulq- atvoriga berilgan baho bo'lmay, balki ayrim o'qituvchilarning o'quvchilar xulq- atvorini tuzatishda natijaga erisha olmaganligini bildiradi . Lekin bitta o'quvchi hamma o'qituvchilarga nisbatan ham bunday hatti- harakatni amalga oshirmaydi. Yomon xulq- atvorning o'z sababini tushunib olish. Atrofdagilarning o'ziga e'tiborini xohlaydigan o'quvchilar o'zlarini xuddi haqiqiy artistlarday tutadilar va ko'p hollarda bunday xulq- atvorning sababi shu bo'ladi. Shunday bolalar borki, ular yoki butun sinfni jonlantirishlari mumkin yoki aksincha barcha ishlarni juda sekinlikda amalga oshiradilar. Bunday bolalarni barcha ishlarda faol bo'ladiganlarga nisbatan tuzatish qiyinroq kechadi, chunki ular intizomni aytarli rasman buzmaydilar. E'tiborga bo'lgan ehtiyoj psixologik jarayon bo'lib , ovqat va suvdek zarur. Uydagi e'tiborning kamligi uning maktabdagi xulq- atvoriga ta'sir etadi. Bunday bolalar ijobiy muloqot qilishni bilmaydilar. Pedagogdan bunday o'quvchilarga imkon qadar ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi. Ular o'zlarini ko'rsatish uchun turli usullarda foydalanadilar, ya'ni barcha ishlarning aksini qilishga, masalan, nazorat ishini hammadan



keyin bajaradilar yoki umuman topshirmaydilar sinf oldida o'qituvchining obro'siga putur yetkazadigan so'zlarni aytadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyozov R. Muomala madaniyati. Risola T.: 2015 y. 20 b.
2. A.Avloniy., "Turkiy guliston yoxud axloq" T, O'qituvchi, 1992 y.11 -b.
3. Musurmonov R. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'smirlarni tarbiyalashda ijtimoiy nazoratning ahamiyati. "Uzluksiz ta'lim" j. 2020 y. Maxsus son, 63-67 B.
4. Musurmonov R. Vzglyadbi vostochnbix mbisliteley na vospitaniye rebyonka i semeynbiye otnosheniya v uzbekskix semyax. Vestnik nauki i obrazovaniya 2020. № 4 (82). Chast 1 Rossiyskiy impakt-faktor: 3,58 nauchno-metodicheskiy jurnal.
5. Musurmonov R. Oilada farzand tarbiyasida klaster usulidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari "Uzluksiz ta'lim" j. № 1 2021 y. 69-74 B.
6. O.Bo'riyev, M.Usmonov O'zbek oilasi, T.: 2012.
7. Ismoilova D.M.Ta'lim sohasida prognoz qilish ilmiy-pedagogik muammo sifatida. Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804
8. Suyarov A. Fan va zamonaviy ta'limning asosiy masalalari "Maktab va hayot" ilmiy metodik jurnal Maxsus son 17-bet. 2021 yil №2
9. Kh, Khasanova G., and Kenjaboev Sh Kh. "The role of education system in human capital development." Восточно-европейский научный журнал 2-1 (66) (2021): 48-51.